



EM ashxura
maraliyeva

Səkin bo'ronlar



821.512.133-1-93

84(50')-5

U 47

U 47 Umaraliyeva, Mashhura. Sokin Bo'ronlar [Matn]: she'rlar /M. Umaraliyeva – Toshkent: «Ijod Nashr» nashriyoti. 2024. – 80 b.

ISBN 978-9910-9068-9-3

Mashhura Umaraliyeva Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi 10-sinf o'quvchisi. Uning adabiyotga, she'riyatga ixlosi baland. Bo'lajak shoiraning mazkur kitobdagi tabiat, insonlar, ota-onaga hurmat mavzusidagi misralari diqqatingizni tortadi. Tilimizda kam ishlatiladigan so'zlardan ham she'rlarida o'z o'rnida foydalana olgan.

Ushbu kitobda Mashhura Umaraliyevaning ilk mashqlari, ijodiy qarashlari, qalb kechinmalari, yoshlikning beg'ubor nafasi kelib turuvchi nafis she'rlari o'rin olgan.

Yosh ijodkor o'zining dastlabki she'rlarini siz aziz kitobxonlarga armug'on etmoqda.

ISBN 978-9910-9068-9-3

© Mashhura Umaraliyeva, 2024

© «IJOD NASHR», 2024

SHE'RDA KO'NGIL AKSI BOR

She'r – inson ruhiyatining darakchisidir! Chunki unda ijodkorning qalb kechinmalari, orzu-o'ylari ko'zgudagi misol gavdalanadi. Biror bir asarni o'qir ekanmiz, unda muallifning mavzuga va yon-atrofdagi hodisalarga munosabatini anglashimiz mumkin. Ijod olamiga endigina qadam qo'ygan Mashhura Umaraliyeva hayotga teran nigoh tashlaydi. Undagi qushlar chug'uri-yu, tabiat manzaralari muallif qalbidagi ilhomni uyg'otadi, unga ijod qilish zavqini ulashadi. Mashhura ilhom parisiga nisbatan nohaqlikdan asrovchi qurol deya murojaat qiladi:

*Men tilayman shoir yonida
Umrbod yur, mehmonlikdan qol.
Bo'l zulmatda yoritguvchi nur,
Nohaqlikdan asrovchi qurol.*

Insonlar o'rtasidagi munosabat yoki baxtsiz voqealarda qora mushukni aybdor qilishdek g'alati jarayonni shoira mohirona tasvirlagan:

*Balki uning ko'ngli bo'zdan ham oqdir,
Yaxshi fikr ila banddir xayoli.
Tashqi ko'rinishi shunday bo'lgan-chun
Tashlandiq ko'chami asosiy yo'li?*

*Menga alam qilar,
Ayrim odamlar
Qora mushukchani haydashar nechun?
Nega qalblaridan qora mushukdek
Qora o'ylarini qilishmas surgun?*

Mashhuraning bola tilidan yozilgan she'rlari ham uning bu yo'nalishdagi izlanishlaridan darak beradi:

*Ko'p maqtandim nonim uchun,
Xamir qorib oshirganim.
Yaxshiyamki men nonimni
"Duxovkada" pishirganim!*

Mashhura Umaraliyeva ayni paytda Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabining 10-sinf o'quvchisi. O'ylaymanki, ushbu kitobga kiritilgan she'rlardagi ayrim juz'iy xatolar uning salmog'iga soya solmaydi. Kelgusida yosh qalamkash Mashhura Umaraliyevaning o'z ustida ishlab, adabiyot maydonida o'zining so'ziga va o'rniga ega bo'lishiga tilakdoshman.

Muhammad ISMOIL

*Shoir, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
Xalqaro Rabindranat Tagor
mukofoti sohibi.*

YURAK

Yer tinmay aylanar ikki tomonga,
Ammo fahmlamas jamiki dunyo.
Nazariy bilaman men ham bu sirni,
Lekin anglolmasman, hissizman goʻyo.

Umr boʻronida aylansam agar,
Hech narsa sezmasa yuragim, nahot.
Harakatim bilar, biroq his qilmas,
Yuraksiz hayot yoʻq, fojia, hayhot!!

Yer bir tirik jondir, mening nazdimda,
Uning yuragidir insonlar bari.
Yurak odam bilan ishi boʻlmasa,
Asta ketib borar mangulik sari...

TUNGI YOMG'IR

Taxtiravonidan quladi quyosh,
Xayolot olamim saltanatida.
Keyin esa podshoh etib saylashdi,
Mudrayotgan oyni samo qatida.

Oyning iqtidori yetarli emas,
Quyoshga o'rgangan mamlakat uchun.
Maddohlar maqtashib go'yo bulutdek,
Oy nurin berkitib yo'q qilar kuchin.

Xalq esa qo'zg'olon ko'tardi, biroq
Amirlar yubordi chaqmoq xipchinin.
Bu ham yetmagandek, yuzlab zambarak,
Dunyoni qildi-ku ostin-u ustun!

Tutishib qo'zg'olon rahbarlarini,
Zindonga tashlashdi qora botirlar.
Ozurda xaloyiq yig'lab qolishdi,
Ahd qildi o'ch olmoq pahlavon erlar.

Quyoshni chorlashdi o'z yurti tomon,
Shahar darvozasin berishdi ochib.
U yana shoh bo'ldi, xalq esa shodon,
Oy tarafdorlari ketishdi qochib.

Mamlakat hayoti xo'p go'zal bo'lib,
Yetti xil ranglarda tovlanar bugun.
Xalq endi nolimas podshoh quyoshdan,
Yodidan chiqquncha qayg'uli shu kun!

SAMO TOPSHIRIG'I

Osmon bu kun yomg'irga aytar,
Yer g'uborin yuvishin go'yo.
Yomg'ir yog'ar o'ychan, shivalab:
"Oh, dardlanib ketibdi dunyo"...

Keyin horib iste'fo qilar,
Ko'k topshirar bu ishni qorga.
Qor yog'adi shundan so'ng, lekin
Yerga tushar, iymanib zo'rg'a.

Samo bilan yer o'rtasida
To'xtab qolar ba'zan qorparcha.
Yerga emas, uyga kirmoqday
Darcha tomon urilar ancha.

Osmon so'rar uning bu ishin,
Tavsifini aytadi qor ham:
– Yer emasdir kirlangan aslo,
Kirlangandir aslida odam!

BIR XILLIK

Atrofimda faqat bir xil narsalar,
Bir xil odamlardan bir xilda soʻzlar.
Bir xil kulgular-u bir xil qaygʻular,
Bir xil niyatdagi bir xilli koʻzlar.

Yuragim simillab ogʻrib qoʻyadi,
Koʻzim atrofini qoplaydi tuman.
Yoshlarim oqadi bir xil vaznda,
Hatto yurak urar bir xilda hamon.

Bir xil qadamlar-la kechar sayohat,
Safarim gulzordan chetga chiqolmas.
Eng baland choʻqqiga xavfli boʻlsa-da,
Chiqmoq xohishidan tafakkur qolmas.

Yuqoriga yetish zavqli boʻlmaydi,
Zinalarda bir xil bittadan yurish.
Istayman, oʻzgacha, turfa boʻlmoqlik,
Turfa gʻoyalardan turfa qalb qurish.

GʻALATILIK

Qora mushuk yura olmas koʻchada,
Insonlarning xato oʻylari sabab.
– Yomonlik keltirar bizga, – deyishar,
Falokat koʻrganday mushukka qarab.

Balki uning koʻngli boʻzdan ham oqdir,
Yaxshi fikr ila banddir xayoli.
Tashqi koʻrinishi shunday boʻlgan-chun
Tashlandiq koʻchami asosiy yoʻli?

Menga alam qilar,
Ayrim odamlar
Qora mushukchani haydashar nechun?
Nega qalblaridan qora mushukdek
Qora oʻylarini qilishmas surgun?

TUNDAN TONGGACHA

Milt-milt yonayotir umid chirog'i
To'zg'igan xayollar girdobi ichra.
– U yog'du jafokor, – hadik bor, chunki
Parvonadek kuymoq istamam sira.
 O'ylarim bo'roni gulbog'larimni
 Payhon etsa hamki, ishonch barhayot.
 Yana tafakkurim qilar iddao:
 – Balkim, budir senga intiho, mamot.
Yuragim xun bo'lib ezilib ketar,
Sig'mas yurak suvim jismimga goho.
To'lqinlanib borib chiqar ko'zimdan,
Yuragim shunchalar kattami, oho?!
 Cho'g' yanglig' e'tiqod so'na boradi,
 Shu payt cho'kib ketar dengizga ruhim.
 Axir bu suv emas, sovuqqon so'zlar,
 Xuddiki taqdirim qilgaylar hukm.
Zuluklar gap qotar mudroq ruhimga,
Deyishar: – Uxlama, qimirla, uyg'on.
Fikrini uqtirmoq uchun tanamga
Yopishib tishlashib turg'izar oson.
 Og'riqdan ko'zlarim ochganim zamon,
 G'ira-shira tongni xursandman ko'rib.
 Zulmat ariyapti – qanchalar yaxshi,
 Bari-chun sanolar aytayin turib.
Shu'la aylanadi yorug' xurshidga,
Yashnab ketar shunda bu dunyo, ochun.
UMID, ISHONCH, SHUKR, HARAkat bilan
Quyoshli kunlarga yetarman bir kun!

MITTI BIR MALAK

Qurtning koʻrinishi chiroyli emas,
Ammo koʻrkam boʻlar kapalak boʻlsa.
Istaydi bir kunlik goʻzal umrini,
Gullar ichra uchib, goʻzalroq qilsa.

Hayotin oxiri quvonchli edi,
Hatto unut boʻldi ogʻir chogʻlari.
Endi udir koʻkda uchib yurguvchi,
Bu dunyodan mamnun mitti bir pari!

Oʻylashimcha, shu bir jihati bilan
Odamga oʻxshaydi goʻyo kapalak.
Chunki insonga ham mashaqqatdan soʻng,
Chiroyli yakun va biroz baxt kerak.

Asli inson zoti qarilik uchun
Yillar mobaynida yigʻadi hurmat.
Keksalik davrida eʼzoz koʻrishi –
Butun bir umriga tatiydigan baxt!

YONARQURT

Agarda tun bo'lmaganida
Yonarqurtni bilmas edilar.
Ko'rganida hayronlar bo'lib
Zavq-shavq ila kulmas edilar.

Ammo kecha har doimo bor
Yonarqurtning quvnashi uchun.
Har kimning ham yayrashiga vaqt
Yaratilib yaralgan ochun.

Xuddi shunday har maxluqotga
Kashf etilgan baxtli pallalar.
Lek yonarqurt shod payti bo'lmas,
Gar uxlasa tinglab allalar!..

ONAJONIM

Quyosh chiqmay porvonasiz,
Tong otar chogʻ yuzim silab uygʻotasiz.
Tinim bilmay bizlar uchun mehnat qilib,
Azon turib yana ish-la ovorasiz.

Siz tebratgan tol beshikning ovozi ham,
Bir maromda gʻichirlashi koʻp yoqardi.
Siz kuylagan allangizning sadolari,
Jannat kuyi sadosi-la tutashardi.

Oʻgay taqdir xanjari-la qalbim tilsa,
Peshonamni silab-silab davolaysiz.
Manglayimni siypaysiz-u dil yaramni
Bitkizasiz. Buni qanday uddalaysiz?

Daryo – suvga choʻkish yomon. Lek choʻkmoqlik
Mehringizning daryosiga oh, farogʻat.
Soʻzlaringiz tabib boʻlib singib kirib
Malhamlaydi qoldirmasdan hech jarohat.

Dimogʻimga gʻubor kirib aksi ursam,
Kapalakdek uchib kelib hayronasiz.
Shunday paytda chang oʻrnida Jannat isi,
Siz pari, yoʻq undan yuksak zot – Onasiz!

USTOZ

Iste'dod atalmish sayyoramizning
Tarkibin kashfiyot etgan ham Ustoz.
Har bir o'quvchining ichki dunyosin
Xaritasin tuzib, bitgan ham Ustoz!

Ilm dengizida ilm-u tolibga
Suzish imkonini bergan ham Ustoz.
Buyuk donishlarning ortida hatto
Tirgak bo'lib, kulib turgan ham Ustoz.

Hayotning yomg'irli, qorli kunida
Qanday yashashni ham bildirgan Ustoz.
Umr dovonida horib, charchagan
Shogird quvvatin ham to'ldirgan Ustoz.

Chiqmoq uchun ildam dunyo toqiga
Ko'maklashib turar narvondir Ustoz.
Haq yo'lin ko'rsatib tanittirguvchi
O'quvchiga go'zal iymondir Ustoz!

SHOIRLIK QISMATI

Yuragini sharbat siqqichga
Shoir qayta, qayta solajak.
Yuragiga sanchilgan oʻqni
Yurakdonga “pero” qilajak.

Shoirning qalb ummoni aslo
Tinch turmasdan tugʻyon etadi.
Toʻlqinlardan sachragan tomchi
Koʻzlaridan chiqib ketadi.

Qalb hislarin yuklar yoshlarga,
Qogʻoz uni qarshilab olar.
Lek sahifa dardga, gʻuborga
Chidayolmay burishib qolar.

Ogʻir yuk bor shoir boʻynida,
U yuk nomi – xalqning hasrati.
Qanot ham bor shoirda yana,
U xalqining quvonch – hayrati!

KAKTUS GULLARI

Aslo demang manzarali gul,
Muslimani atangiz tikan...
Kamtarinlik?
qachondan beri
Maqtanchoqlik kamtarlik ekan?!

Kaktus guli – tikan, chechagi
Manzarali gullardan go‘zal.
Har bir ishning osonin ko‘zlash,
Insonga xos azaldan azal.

Ignalarin ko‘rib kaktusning,
Xulosani qilmoqlik xato.
Omonatni asragani-chun
Alloh chiroy etganmish ato.

Eh, qachondan kitob tanlashda
Muqovaga qaralar ekan.
Kitoblarni dono kitobxon
O‘qib ko‘rib saralar ekan!

Surat go‘yo sham nuri misol,
Siyratimiz – quyosh singari.
Omonat bir shu‘ladan ko‘ra
Bo‘l ziyoga intilgan pari.

SHOIRNI DEMANG...

*“Yozilmagan sheʼrlarning choʻgʻi
Kul boʻlib toʻkilar yuragingizga,”.*

Erkin Vohidov

Qiynamang shoirni xayolparast deb,
Uning xayollari moʻjiza asl.
Shoir tafakkuri yetgan joylarga
Harchand urinmasin yetolmas aql.

Shoir ismin yodlang, unutmang lekin
Qoʻshmang hayajonni nomi yoniga.
Ayting mehribon deb, koʻngli yumshoq deb,
Ozor bermang faqat kentik joniga.

Kul boʻlib toʻkilsa yurak bagʻriga,
Yozib ulgurmagan sheʼrlarin choʻgʻi.
Oʻychan, gʻamgin yursa xayolparast deb ,
“Hayajon” atamang
“Oh”, – degan chogʻi.

OTA

Umr charxpalagin beto'xtov, bedam,
Yo'lga solaverar yillar oqimi.
Ota yuzlariga ajinlar solar,
O'gay taqdir chaqqan chaqmoq chaqini.

Nurafshon ko'zlarin nimxira qilar,
Darbadar xayollar chang-u to'zoni.
Tim qora sochiga qirovlar ilar,
Dunyo tashvishlarin ayoz bo'roni.

Yog'ganda tosh yomg'ir jigarbandiga,
O'ylanmay yelkasin qalqon etajak.
Ota shunday zotdir dilbandi uchun
Qo'lida quyoshni qo'rqmay tutajak!

XAZONLAR

(Nido)

Kuz, sovuqdan elangandim,
Bahorga men tezroq kel deb.
Jazirama bezillatdi,
Sogʻinchginang ezar hadeb.

Pana joyga oʻtar boʻldi,
Issiq sabab har tirik jon.
Manfaatli bu dunyodan
Foyda istab yashar inson.

Qalbim oʻzi yonar oʻtdir,
Yoz tanimni yondirmoqda.
Chanqogʻingni erta-indin
Kelmoqliging qondirmoqda.

Ey Alloh! Kuz kelguncha
Xazon boʻlib qolmay qurib.
Men barglarni bosganimday
Ezmasinlar mendan yurib.

NIDO*(Ilhom parisiga)*

Ilhom, xafa bo'lmoqlikni sen
Uddalaysan nafas olishdek.
Lek bilmaysan shoir odamga
Osoni yo'q o'ylab qolishdek.

Shoir uchun she'r yozmoqlik ish,
Dam olishdir jismoniy bari.
Bilsang, unga o'zing dushmansan,
O'zing uning suyuk dilbari.

Men tilayman shoir yonida
Umrbod yur, mehmonlikdan qol.
Bo'l zulmatda yoritguvchi nur,
Nohaqlikdan asrovchi qurol.

MEHRIDARYO SOʻZI

Mehrni ne uchun daryo ataymiz,
Okean demaymiz, demay dengiz, koʻl?
Axir oʻzbek xalqi koʻp dono xalqda,
Har bir soʻzda yoqut, gavharlari moʻl.

Okean, dengizlar suvi bilsam shoʻr,
Daryo suvi esa chuchuk ham shirin.
Mehr boʻlsa totli xislat dunyoda,
Mehridaryo demoq kashf etdik sirin.

Mehr daryosining sof toʻlqinlari
Mavjlanib ulashsin mudom ezgulik.
Qahr dengizi ham qurib bitarmish,
Faqat yaxshilikka qoʻl ursa ilik.

INSON QILGANINI EPLAYDI INSON

"Algebra fanini yoqtirmaysan-a?" –
Ishonch-la so‘rashdi bir kuni mendan.
Sababi emishkim ijodkorligim,
Negaligin bilib lol qoldim chindan.

She‘r olami ichra yurgan shoirga,
Matematik olam ekan begona.
Hayajon-la yo‘ldosh ijodkor agar
Duch kelsa misolga emish hayrona.

Bu fanni sevishim ijodkorlikka
Bog‘liqmas, sababi ajib bir sirda.
Matematik muhit adabiyot-la
Ulg‘aydim yo‘g‘rilgan go‘zal qasrda.

Aslida har kim ham eplay oladi,
Faqat ishtiyoq-la o‘rganilsa bas.
Inson qilganini qilolar inson,
Mening bu so‘zimga juda ko‘p asos.

SOXTA SHOIRA

Qogʻoz-u qalamni ham tutib qoʻlga,
Oqshom chogʻi chiqib bogʻ tomon yoʻlga,
Yuraman qayrilmay aslo oʻng-soʻlga,
Soxta shoiraman, soxta shoira!

Havolab yozaman nasihat qilib,
Tergayman oʻzimcha donishmand boʻlib,
Goʻyo men oʻzimni koʻkda oy bilib,
Soxta shoiraman, soxta shoira!

Muhabbat haqida sheʼr yozishni ep
Koʻrmayman oʻzimcha rosa kerilib,
(Aytib boʻlmas sheʼrim asli sheʼr ham deb),
Soxta shoiraman, soxta shoira!

Soxta shoira ham bir kunmas, bir kun,
Haqiqiy shoir ham boʻlishi mumkin,
Axir, sheʼrimda bor soxta bir fusun,
Soxta shoiraman, soxta shoira!

SHUKRONALIK

Tun ko'rsatar bizga kunning qadrini,
Sezdiradi bulut quyosh himmatin.
Ezgulik yodlanar yomonlik chog'i,
Nopoklik oshirar pokning qiymatin.

Allohim yaratgan inkori bilan,
Dunyodagi barcha ezgu xislatni.
O'rgatar yomonlik yaxshilik uchun
Shukrona qilmoqqa insoniyatni!

25.02.2023

BUYUK AJDODLAR

Temurbek yashnatgan goʻzal chamanni,
Jaloliddin yurt deb tikdilar jonni,
Kubrodek sevmqlik kerak Vatanni,
Buyuk ajdodlarning avlodlarimiz!

Islom bobom yurti uchun tinchlik quruvchi,
Inson qadrin oʻylar – Shavkat bobom-chi?!
Islom bobomizga Ular davomchi,
Buyuk ajdodlarning avlodlarimiz!

Jaloliddin kabi Temurdek oʻgʻlon,
Yurtim deb sarhadda tururlar har on,
Tinchlik posbonlari boʻlsinlar omon,
Buyuk ajdodlarning avlodlarimiz!

Ular buloqlar, biz – buloqning koʻzi,
Koʻl boʻlar yogʻganda yomgʻirlar izi.
Yodimizda doim ajdodlar soʻzi,
Buyuk ajdodlarning avlodlarimiz!

Hamid Olimjonning

“SOG‘INGANDA” *she’riga nazira*

“Kabutardek yurak urinar,
Necha kundir sensiz yashadi”.
Ey Vatanim, seni ko’rmoqqa,
Bu shoshqaloq yurak shoshadi.

Sen chamansan, men – bir kapalak
Senga maftun bo’lib yurguvchi.
Mittigina jonhalagingman,
Bir guling-chun umrim berguvchi.

TUGALLANMAGAN SHE'R

Erta bahor chog'i olam serfusun,
Derazadan boqsam kuladi gulgun.
Tabiat darsim bor, iltimos, tushun,
Boshimda yong'oqlar chaqilar bukun.

Avvalo, yelkamda uy vazifalar –
Tog'i bor, yonmoqda yuragim lekin.
Bukun sening haqda yozarman bayot,
Ha, boshimga dardlar olyapman tekin.

Bilaman, she'rimni o'qimas hech kim,
She'rlarim hech kimga zavq bag'ishlamas.
Axir nima qilay telba yuragim
She'r yozgin deyishdan boshqasin bilmas.

TANLOV UCHUN SHE'R

Tanlov uchun she'r yozmoqqa imkonim yo'q,
Imkon emas, imkon bor-u, ilhomim yo'q.
Ko'ngil dardin, dil quvonchin ta'riflamay,
She'r bitmasam bo'lmaydi hech bu ko'ngil to'q.

Ilhom, senga ma'lomatlar aytsam arzir,
Axir, tanlov sening, mening foydamiz-ku.
Ilhom, senga ko'p rahmatlar aytsam arzir.
Manfaat-la yozilgan she'r bema'ni-ku!

KITOBGA IXLOS

Dono bobo bolalarga qarata:

– Sizlar porlab chiqing dunyo sahniga,
Tariximiz buyuk, Sizlar kelajak.
Kitoblarga oshno boʻling barchangiz,
Ajdodlar sizlarga oʻrnak boʻlajak.

Dono bolalar bobosiga qarata:

– Ajdodlar bizlarga oʻrnak boʻlajak,
Dono ajdodlarga buyuk avlod mos.
Navoiy soʻzlari shior bizlarga,
Sinodek kitobga qoʻyganmiz ixlos!

GULXAN

“...Kelding-ey istiqlol, istiqbol bo‘lib”¹
Qalbdan qora bulut butkul yo‘qotding.
Erklik kalitisan o‘zing istiqlol,
Erksizlik kalitin qulflab otting.

So‘nmoq istamagan umid cho‘g‘idan
Ozodlik nafasini taratib tinmay.
Abad gurullagan gulxan yaratding,
Gulxanda toabad bo‘lmas isinmay.

Qora bulutlarni nahot kuydirdi?!
Gulxan uchqunlari samoga uchib.
Istiqlol, qalamim kuchi hech yetmas,
Hattoki yozsam ham ilhomlar quchib.

Senga tashakkurlar aytayin takror,
Butun O‘zbekiston ko‘p bor aytajak:
– Sening og‘ushingda mustaqil yoshlar
Albat, yurtga bo‘lar porloq kelajak!

¹ Zulfiya Isroilova misrasi

Bu dunyo zahmati-yu qiyinchiliklariga sabr qilib, ularni metin bardoshi ila yengib oʻtib, oʻtmishidan, bu kunidan nolimay, koʻz yosh qilmay yashaydigan, porloq koʻzidan nur taralib, yulduzni mahliyo qilib nur oʻgʻirlashga majbur qilgan, qalbi pok, mehri – daryo ayollarga – onalarimizga bagʻishlanadi.

AYOL

Ey ayol,
Porloq koʻzingdan nur oʻgʻirlab yulduz,
Aybiga iqroran aytmasdan hech soʻz.
Osmon-u falakni aylabon makon,
Uyatdan tushmagay koʻkda u hanuz.

Ey ayol,
Koʻnglingni yaratgan pok qilib Alloh,
Sofliging oʻgʻirlab, qilgan suv gunoh.
Endi u nopokni pok qilmoq uchun
Nopok boʻlganiga boʻlganmiz guvoh.

Ey ayol,
Sendan oʻgʻirlagan sabrni ham tosh,
Endi u tepkiga bermoqda bardosh.
Qiynalar, armonin koʻmar qalbiga,
Koʻz yoshin koʻrsatmas, toʻkmas aslo yosh.

Ey ayol,
Alloh sochmish olam yaratgan mahal
Hislating dunyoga oh, qanday goʻzal.
Shoirlar ilhomi oʻzingsan ayol,
Sen haqingda erur ming-minglab gʻazal.

SHOIR BOLA NIDOSI

– Ilhom, senga lol qolamanda,
Nuqul kelasan-a vaqt yo‘qligida?!
Bekorchi paytimda “bo‘lib mehmon-da”
Ochlikda borsan-u yo‘q to‘qligimda.

Ilhom aytar:

– Azizim, o‘ylama bunday,
Menman duk etguvchi har bir yurakda.
Aslida o‘zing-ku meni zanglatib,
Vaqting o‘tkazasan ko‘pin pinakda.

SHOIRLIK

Ilhom taqqillatsa yurak eshigin,
Do'stim, yuragingdan haydama uni.
Agar kirgizmasang qalb hamxonangga,
Keyin qiynalasan to'lolmay xunin.

Mayli, vaqting ziqdir, ammo unutma,
Ilhom kelganida vaqt top – shoirsan.
Shoir bo'lmoqlikni istabsan endi
Yuraging tilmoqqa afsus majbursan.

Alloh yuqtiribdi senga iste'dod,
O'ylama, Shoirlik aslo oson deb.
Shoirdan telbaroq inson yo'q asli,
Shoirdek avliyo tug'ilmas hadeb.

Agar kasal bo'lsa davosi ham she'r
Lek she'r uni qilgan xastayi bemor.
She'r yozsa yuragi topajak taskin,
She'r yozsa yuragi topadi ozor.

Shoir shunday TELBA, shunday AVLIYO,
U haqiqiy DONISH, ammo yarim jon.
Qalbidagi o'tga yuragin yoqib
She'rlar yozajakdir o'zga beomon.

ONA

Allohimga ko'p rahmat mening sarnavishtimdan¹,
Shukronani o'rgandim, yerdagi farishtamdan.

Farishta emas asli, farishtalar peshvosi,
Hatto meni mast qilar tanbeh bergan ovozi.

Umrim xurshidi onam, oftobi olamtobim²,
Haq yo'lni ko'rsatuvchi ma'niyi xos³ kitobim.

Ona, sizda ko'rganman Yassavi-yu Bedilni,
Navoiy bo'lib doim poklagaysiz bu dilni.

Rub'i maskan⁴ ichra siz saromadim⁵, onajon,
Allohim in'om etgan siz omadim, onajon.

¹ S a r n a v i s h t – taqdir.

² O f t o b i o l a m t o b – olamni yorituvchi quyosh

³ M a ' n i y i x o s – nodir, chuqur ma'noli

⁴ R u b ' i m a s k a n – dunyoning to'rtidan bir qismi, ya'ni quruklik (qolgan uch qismi suv)

⁵ S a r o m a d – ortiq darajadagi, ustun. Biror sohaning ko'zga ko'ringan arbobi

GUMON

(Sonet)

Ilk bahor qitiqlar asta iliq nur,
Kurtaklar uygʻonar, barglaydi daraxt.
Gullab saxiylikni oʻylar, qilar ahd,
Mevasin ulashib topadi huzur.

Soʻng barglarin toʻkar dardlarin qoʻshib,
Bahorgacha ketar Uyqu shahriga.
Kelgusi umrini tush koʻrar joʻshib,
Parvo ham qilmaydi sovuq zahriga.

Yaxshilikning tafti ancha iliqroq,
Qahraton, izgʻirin qish boʻronidan.
Yaxshilik yaxshi-ya, u gumonidan.

Hatto muzdek qalbni eritar, biroq,
Asli yomon gumon eng katta gunoh.
Yomon gumonlardan asrasin Alloh!

YIG'I

Nega yig'layapsiz? Darddan deysizmi?
G'amingiz og'irni ko'tarib bo'lmas?!
Nima, yig'lasangiz dard ozayarmi?!
Aslida yig'i hech foydali – yo'lmas.

Bu dunyo tashvishin o'ylamang, do'stim.
Neki kerak bo'lsa so'rang Allohdan.
Tiyiling, Xoliqning bergan dardiga,
Norozi bo'lishdan, yig'i, gunohdan.

Dardin bergan Tangrim berar shifosin,
Ikki qo'l bir bo'lib duolar qilsak.
Yig'ini qo'yingda, qiling tabassum,
Hatto kulgi – savob, sadaqa, bilsak.

ASLIYAT

Koʻp bora oʻylardim bola fikrimcha,
Quyosh aylanar-u – Yer harakatsiz.
Soʻng ulgʻayib bildim – Quyosh jilmasdan,
Yerni aylantirar atrofida tiz.

Shunda men his qildim roʻyi maskanda
Koʻringan narsalar emas aslicha.
Mohiyatin sezsak barcha-barchasin,
Siyrat-u surati asli ayricha.

ASL MUAMMO

(Suhbat)

- A: Tong havosi – toza, musaffo, o'g'lim,
Derazani ochgil, yelsin shaboda.
- B: Xo'p bo'ladi. Mana. Bir savol: – Faqat
Tongda esadimi sof havo, dada.
- A: Savoling ajoyib, sermulohaza,
Mayli, aylanamiz biroz ko'chani.
Savolingga javob olasan shunda,
Qalpog'ing kiyib ol, polvonim, qani.
- B: Dadajon, qo'rqyapman hamma yoq jimjit,
A: Ko'cha chiroqlari yoniq, chekma g'am.
B: Ayting, nega hali odamlar siyrak?
A: Barvaqt turganlar kam, yana erta ham...
- A: Daraxtlar barglarin sochibdi yerga,
Qara supurmoqda hovlisin opang.
- B: Ariqqa itarib tashlayapti-ku
Yana biri xazon yoqyapti, qarang!
- B: Oh dada, tutuni bunchalar achchiq?
A: Boisi nam hali, qurib bo'lmagan.
Va yana zararli tabiat uchun,
Go'yoki opanglar buni bilmagan!
- B: Yomon hid kelyapti, dada, nimadan?
A: Anovi birodar chekar tamaki.
B: Bizni zaharlamang sizdan iltimos,
Jamoat joyida chekmang, amaki.

- D: Bitta “sigaret” deb o‘lib qolmayсан,
O‘zingcha donolik qilma, o‘v nodon!
Bolangizga ozroq qarang-da, aka,
Kattaga o‘shqirar – o‘zicha osmon.
- A: Bo‘laqol, ko‘p narsa ko‘rishing kerak,
Yuraging keng qilgin, o‘ylanma hech ham.
Undan ko‘ra qara, dudbo‘ronidan
Mashina chiqarar tutunin g‘aram.
- B: Qop-qora tutunlar burqsib chiqyapti,
Dada, huv naryoqqa ko‘ring bir boqib.
Boyagi narsalar hech narsa emas,
Zaharli bulutlar yuribdi oqib.
- A: Ha o‘g‘lim, afsuski, zavod-fabrika
Ishga tushgan chog‘i shunday bo‘ladi.
Endi uyg‘onmoqda ayni payt shahar,
Tushga borib gazga atrof to‘ladi.
- B: Bu bizga ziyon-ku, to‘g‘rimi, dada?
A: Nafaqat bizlarga, balki yerga ham
Zararin keltirmay qo‘ymaydi aslo,
Zahmatlar topadi butun bir olam.
- A: Agar atmosfera bo‘lsa kambag‘al,
Yer ham nochorlashar qo‘shilib unga.
Tabiatni asrash muhimdir, o‘g‘lim,
Amal qilgin doim shuning-chun bunga.
- B: Bitta men-la dunyo o‘zgararmidi ?
A: Sen-la o‘zgarsin-da butun bir bashar.
Kelajak o‘zgarar yaxshi tomonga,
Sen-u men o‘zgarsak bundan so‘ng agar!

RUH VA NAFS JANGI

Ichimdagi tashqimdadur,
Tashqimdagidur ichimda.
Ruhim shunday bo'lg'in deydi,
Uning uchun shu gap chin-da.

Shayton ba'zan pichirlaydi:
– Ichingdagin bildirmagin.
Tashqing boshqa bo'lsin doim,
O'zgalarga ko'rin sokin.

U quloqdan bu quloqqa
Iblis uchib, o'tib qaytar...
Shayton bilan kurashib ruh:
– Quloq solma, – deya aytar.

Qalb xohlaydi ruh istagin,
Ammo nafs ham tinch qo'ymaydi.
Pichir-pichir so'zi esa
Miyamni yeb hech to'ymaydi.

Ruhim qolar iymonimning
Nafs-la qilgan janggohida.
– To'g'ri yo'lni tanla, – deydi,
Ruhim chekkan har ohida.

Shunda menga ko'mak berar
Oldimdagi tik devorlar.
Ularga duch kelmaslikka
Tafakkurim, aqlim chorlar.

MANTIQ

– Mantiq bilan ish koʻrmoqlik –
Eng yaxshisi, – deydi yurak.
Demang: –Yurak nafs tomonda,
Mustamlaka boʻlsa kerak.

Yoʻq, Yurak bir boʻysunmagan
Davlat erur hali yakka.
Yutqizsa ruh, gʻam-anduhlar,
Axir, tushar uning chekga!

Qalb, taffakkur, iymon bahsda
Ruhga sherikdir begumon.
Duo – hamroh tezkor ulov,
Endi dushman qolmas omon.

Jang tugadi. Ruhim gʻolib,
Jismim chekdi dard-alamlar.
Lekin yara topmas bunda,
Toblanadi chin odamlar.

IMTIHONGA YAQIN

Mana, imtihonlar yaqin juda ham,
Tilang o'quvchiga ko'p omad faqat.
Chunki u o'qigan, omad bo'lsa bas,
O'rgangani tushsa – muvaffaqiyat.

Bechora bilimdon o'qir qirq mavzu,
Baxtga qarshi savol qirq birinchidan.
Ming bir bilet ko'rib, yodlab chiqar-u,
Lek notanish bilet chiqar ichidan.

Imtihondan keyin bidirlab qolsa,
Yo o'tgan bo'ladi, yoki o'tmagan.
Ikki yuzi kulsa, omad yor bo'lgan,
Ko'zlari qizarsa – omad bitmagan.

Bugun sen o'qigin barcha mavzuni,
Ey do'stim, tiladim omad quyoshin.
Sen, albat, eng katta ballni olasan,
O'shanda berarsan Sen qutlov OSHIN!

BOLALAR ADABIYOTI

Ranglar oʻxshar insonlarga

Sariq rangdir oftobday,
Yuzi porlagan oyim.
Bizga issiq mehrini
Ayamaslar har doim.

Qizil rang lolalarday
Koʻngli toza bolalar.
Ha, bolalar rostdan ham
Yashnab turgan lolalar.

Qora rangdir badjahl,
Koʻngli qora yomonlar.
Ulardan anchagina
Uzoq yuring insonlar.

Yashil rang – qalbi yashnab
Turgan aziz onalar.
Ular bagʻrikenglikda
Olamda yagonalar.

Koʻp ranglar insonlarga
Juda oʻxshab ketadi.
Shu aytgan misollarim
Oz boʻlsa ham yetadi.

“KAMTAR” QIZALOQ TILIDAN

Hazil she’r

Bugun o‘zim birinchi bor
Shiringina nonlar qildim.
Xamir qorish mashaqqatin
Ozmasligin endi bildim.

Dadam kelib o‘z ishidan,
Non yedilar hidlab-hidlab.
– Opang qilgan taom ila
Yana shirin, – deya maqtab.

Onam kelib o‘z ishidan,
Nonni ko‘rib “oh” dedilar.
– Charchog‘im ham chiqdi, – deya,
Nonim o‘pib xo‘p yedilar.

Ko‘p maqtandim nonim uchun,
Xamir qorib oshirganim.
Yaxshiyamki men nonimni
“Duxovkada” pishirganim!

ENG YAXSHI XARAJAT

Bilimni oʻxshatsam oltin koniga,
Cheklab qoʻyaman-ku uning imkonin.
Shu bebaho bilim bir kuni bizga
Berar bitta emas, yuz oltin konin.

Pulimizni bir bor ishlatamiz, lek
Bilimni ishlatsak boʻlar ming marta.
Togʻdek pulimiz ham sarflanar, ammo
Bilim sarflanmaydi koʻpayar qayta.

Qilich oʻtmaslashar, gar charxlanmasa,
Deyarli charxlanar qilich har kuni.
Qilich charxlagandek bilimni,
Charxlab turish kerak – takrorlab uni.

Ilm olish uchun ketgan xarajat
Eng yaxshi xarajat boʻlib qoladi.
Chunki shu sababli olingan bilim
Bundan yuqtasini qoplay oladi.

MENING USTOZIM

Yoshligimda toshni qo'limga olib
Yerga chizar edim allambalolar.
O'quvchi ham edim, ustoz ham edim,
Qo'yardim o'zimga a'lo baholar.

Ulg'ayib maktabga ilk borgan kunim
Ko'rdim men maftunkor, go'zal olamni.
Toshdan boshqa narsa ko'rmagan qo'lga
Ustozim ushlatdi ilk bor qalamni.

Ustozim ko'rindi bo'lib farishta,
Yodimda, boqardi menga muloyim.
Men bilan bog'ladi uni bir rishta,
Eshitildi so'zi mayin kuy bo'lib.

Dunyo boyligini beray ularga,
Xizmati oldida bo'lsa ham nina.
Aytadilar:
– Menga kerakmas bular,
Meni eslab turgin faqat shugina.

Yigirma, o'ttiz yil o'tsa ham, ammo
Ulardan to'g'ri yo'l yana so'rarman.
Ustozim yodimdan hech chiqarmayman,
U mening ustozim, deb g'oz yurarman!

PIYOZ TILIDAN

Shirin baʼzan shifo boʻlolmas,
Shirin dori deyarli boʻlmas.
Dori achchiq boʻlsada doim,
Bemorlarni tuzatmay qoʻymas.

Endi oʻzim tanishtirayin,
Men – pahlavon shifobaxsh Piyoz.
Darmondori juda koʻp menda,
Tuzalasiz men-la, qanday soz!

ULUG‘BEK BOBOMLAR

Ko‘p harakat qildim, adashdim lekin
Yulduzlar sanamoq qiyin ekanda.
Adashib charchadim, erindim keyin,
Ulug‘bek bobomlar qilmagan kanda.

Hisob-kitob qilgan kecha-yu kunduz,
Bobom yanglishmagan, xato qilmagan.
Nomini bilganlar har bitta yulduz,
Yulduzlar nomi ko‘p bizlar bilmagan.

Ulug‘bek bobomga tasanno bo‘lsin,
Yulduzlar haqida bizga bildirgan.
Ulug‘bek bobomga olqishlar bo‘lsin,
Bilim xazinasin meros qoldirgan!

ARZ

Sen kelding hammayoq qorga belandi,
Muzlatding dov-daraxt, ko'cha yo'llarni.
Issiq o'lka izlab ketishdi qushlar,
Tashlab ketdi qushlar sovuq ko'llarni.

Qizaloq maktabga borar ertalab,
Bug'lanib nafasi, yuzi qizarib.
Bir-birin pinjiga tiqilishadi,
Sen sabab qayg'udan, tabiat g'arib.

Ey Qish, sen bunchalar bag'ritoshsan-a,
Jonimiz qiynaysan sen nechun yana.
Qish, hali ko'rasan senda arzim bor,
Pushaymon bo'lasan kelganda Bahor!

MUQADDAS VATAN

Dardga darmon meva o'stirar bog'ing,
Oltindan qimmatdir sening tuprog'ing.
Yashnab turgan go'zal maftunkor chaman,
Muqaddas Vatan!

Bog' bo'lib ko'rinar sahroying, cho'ling,
Ko'rinar dengizday sening bir ko'ling.
Seni ko'rganida yashnar har bir tan,
Muqaddas Vatan!

Ariqlaringda suv mo'l-u ko'l bo'lsin,
Dalangda bug'doylar pishib mo'l bo'lsin.
Tarixing tillarda, dillarda doston,
Muqaddas Vatan!

Ko'ngilni yashnatar gul-rayhonlaring,
Tandirlarda bo'lsin kulcha, nonlaring.
Hamisha yuksak bo'l, bo'lgin sen omon,
Muqaddas Vatan!

KARANTIN PAYTIDA YOZILGAN SHE'R

Qilinganda karantin e'lon
Amal qilib har qoidaga.
Turmaymiz biz chetda hech qachon,
Amalimiz bo'lar foydaga.

Tojdor virus xavf sololmaydi,
Tozalikka qilsak rioya.
Yurtimizda ko'p qololmaydi,
Sololmaydi sog'likka soya.

Behudaga chiqib ko'chaga
Viruaslarni tashib yurmaylik.
Uyda qolib o'qish o'rniga
Kasal bo'lib yig'lab turmaylik.

Yurt boshiga tushganda tashvish
Qalban qo'lni qo'lga beraylik.
Yordam berib qilaylik bir ish
O'zimizni asrab yuraylik.

MEVA QO'RIQLASH

(Bargga yozilgan she'r)

Maza ekan rosa meva qo'riqlash,
Toshlar otib qushni haydash baqirib.
Yeyish chumchuq bo'lib meva o'g'irlab,
“Aytaman”, – der singlim meni chaqirib.

Keyin chumchuq soni bittaga ortdi,
Eh, meva qolmadi bo'ldi-yu chakki.
“Chittak” aytib berdi kam berganim-chun.
Oyijonimdan xo'p eshitdim dakki.

QISHDA...

Billur koʻrpa yopindi yerlar,
Daraxtlar ham uyquga ketdi.
Yangi yilni chorlab qishbobo
Barchamizni shod-xurram etdi.

Billur koʻrpa yopar yer kabi,
Uylar tomi sovuqdan titrab.
Moʻrilardan chiqqan tutunlar,
Rohatlanar yugurib, yayrab.

Tabiatning tin olganini
Qutlamoq-chun ulugʻvor osmon.
Gavharlarni sochib, yerga der:
– Donni undir gavhar-la oson...

VATAN SOGʻINCHI

Uzoq oʻlkalarga borgim keladi,
Ammo uzoqlarga bora olmayman.
Bir koʻnglim nimalar xohlamas axir,
U yerlarga borsam uzoq qolmayman.

Uzoq oʻlkalarga borsam men agar,
Vatanim sogʻinchi qiynar begumon.
Koʻnglimda joʻsh urar bir ezgu tilak:
Doimo Vatanim boʻlsin sogʻ, omon!

SUVNI ASRAYLIK

Vodorod, kislorod biriksa agar,
Natijada bo'lar albat suv hosil.
Ammo tajribani mushkul bajarish,
Yerda chuchuk suv kam ta'riflolmas til.

Behuda jo'mrakdan toza suv oqib
Sovutgich o'rniga sovutsa tarvuz.
Ichimlik suvlari qolmasa bir kun,
Keyin topilmaydi ikki og'iz so'z.

Minglab inson suvsiz qiynalgan paytda,
Ichimlik suviga to'ymoqda ekin.
Biroq o'zimizga qilyapmiz ziyon,
Suv tugar, buni his qilmaymiz lekin.

Yuz minglab aholi suvsiz qiynalar,
Bir necha yildan so'ng ko'payar bu son.
Bunda biz ham, siz ham mumkin bo'lishi,
Buning oldin olish, eh, juda oson.

Insonlar uchun suv eng ulug' ne'mat,
Bu ne'matni tejab, avaylaylik biz.
Bizlardan so'ng suvga to'ysinlar, albat,
Suvni qonib ichsin ming-ming o'g'il-qiz!

MAYMUN

Men bananxoʻr ayyor maymunman,
Shumliklarda men tulkidan zoʻr.
Ayyorligim bilan ustunman,
Qitmir boʻlish baxsh etar huzur.

Charchamayman yugurib, oʻynab,
Shoxdan shoxga sakrab tun-u kun.
Bu dunyoda yashayman quvna
Hayotim shod oʻtkazish uchun.

AYIQ

Men kuchli, baquvvat asalxo‘r ayiq,
Menga asalari dushman ashaddiy.
Hech jonzot keltirmas menga bir ziyon,
Ammo asalarin zarari jiddiy.

Uning mehnatini oldim-ku axir,
Unga indamayman,
Gunohkor o‘zim.
Asalari olsin alamlarin bir,
Kuchsizliginga hech dalilmas so‘zim.

1-IYUN – XALQARO BOLALARNI HIMOYA QILISH KUNIGA BAGʻISHLANADI

Kattalar tilidan:

– Yurtimiz tayanchi boʻlgan bolalar,
Kelajak iqboli kulgan bolalar,
Yurtboshimiz suygan qirmiz lolalar,
Ularni himoya qilaylik bu kun,
Qoʻliga pasportin olguncha butun.

Shiroq kabi yurtning fidokorlari,
Yurtinga tegsin der ular korlari,
Uchinchi Renessans bunyodkorlari,
Ular qilar bizni keyin himoya,
Bugun biz boʻlaylik ularga soya!

Bolalar tilidan:

– Hozir ayrim yurtida yigʻlar oʻgʻil-qiz,
Shukurkim, onamiz bagʻridamiz biz,
Bizlarni himoya qilar yurtimiz,
Urush holatini bilmas tafakkur,
Tashakkurlar boʻlsin, ming bor tashakkur!

Goʻzal yurtni koʻrib shodga toʻlamiz,
Yurtning kelajagi – bizlar, bilamiz,
Ulgʻayib yurtga biz mayoq boʻlamiz,
Vaʼdamiz muqaddas, kuchli orimiz,
Uchinchi Renessans bunyodkorimiz!

AJIB VOQEA

Bolajon tilidan:

Boshimda aylanar o'laksaxo'rlar,
Uyqudan uyg'onib cho'chib ham ketdim.
Atrofimdan haydab barcha-barchasin,
To'shak bilan qumning farqiga yetdim.


Sahroda yuribman suvsiz men mana,
Quyosh qizdiradi. Bunchalar issiq.
Borar bir manzilim bila olmasdim,
Barhanlar tagi ham shunchalar issiq.

Ichishimga qultum, bir tomchi suv yo'q,
Saksovul ildizi bo'ldi sal oziq.
Suvga tashna edim, topa olmasdim,
Saksovul ildizi juda ham achchiq.

Men jonsiz murdadek hushimdan ketdim,
Quyosh qizdirardi qaynoq yuzlarim.
Onam allasini eshitib turdim,
Yonimda onamni ko'rdi ko'zlarim.

– Uxla bolajonim, – der oyijonim,
Tush ekan,
Juda ham sevinib ketdim.
Men uyquga ketdim onam quchoqlab,
Suv bilan sho'rvaning qadriga yetdim!

Bag'ishlovlar



HILOLA

Ustozimga

Shunchalar pokdilsiz, gohida ayoz
O‘zining oqligin gumonga solar.
Ko‘pincha yuzingiz taratgan yog‘du
Hattoki quyoshning ko‘zini olar.

Bo‘lib qolar qalbim xonaqohiga
Har bir sabog‘ingiz abadiy mehmon.
Har so‘zingiz menga bitta gul bo‘lib
Ko‘ngil yerlarimni qilmoqda bo‘ston.

Tanbehingiz biram yoqimli, Ustoz,
Ba‘zan “atayinlar” qilgim keladi.
Kim bilar, gohida shoshqaloqligim
Shunga shoshiltirib xato qiladi.

Yurak deb atalmish mehmonxonada,
Siz uchun mangu bir xona yaralgan.
“Havas”, “E’tiqod”, “Mehr” mebdan
Haqiqat atalmish ifor taralgan.

Hilola Ustoz deb so‘zlayman, ammo
Siz menga quyoshsiz – porloq, mehrtob.
Bayram qutlug‘ bo‘lsin, Quyoshsiymoyim
Yozsam hislatingiz o‘n qalin kitob!

SHAVKAT

Ustozga

Uygʻonar turli xil harakat bilan
Soatlab oʻtirib mudragan tana.
Ranaldo ham shunday mashqlar qilmas,
Bunda raqsga ham tushamiz yana.

Goh kapalak tutib, goh qanot qoqib
Asosiy qismga uchib kiramiz.
Dars payti mazza-yu, darsdan soʻng esa
Oʻzimiz toʻshakka shartta uramiz.

Jismonan tanamiz tarbiya olar
Haftada bir yoki ikki bora xoʻp.
Lekin bu tarbiya yetib ortadi,
Baʼzida asorat bir haftadan koʻp.

Zina shunday paytda xoʻmrayar bizga,
Tizzalar qaltirar bukila olmay.
Aynan shu chogʻ Shavkat Ustozning ismi
Takrorlanar takror tillardan qolmay!..

Tanamiz kasal ham boʻlmaydi aslo,
“Vaksina” mashqlar koʻp qilib tursak.
Shavkat Ustoz hech ham betob qilmaydi,
Tanamiz ularga topshirib bersak.

Shavkat Ustoz, siz-la sogʻlom tanamiz,
Bayramingiz bilan qutlayman kulib.
(Faqat darsingizda ismimni endi
Aytmay qoʻyaqoling ilova qilib).

ABDULLA USTOZGA “IKKICHI” O‘QUVCHISIDAN

Eng yaxshi tilchidir Abdulla ustoz,
Til-adabiyotning so‘zsiz qiroli.
Ba‘zan vazifani bajarmasak biz,
Urishmas, ularning so‘zdir quroli.

Hazillashib turar gohi-gohida,
So‘zlari qalblarga malham bo‘ladi.
Ular tushuntirgan har bir mavzudan,
Hatto tilsiz go‘dak ko‘ngli to‘ladi.

Bilim osmonida porloq yulduzsiz,
Ta’riflashga kuchi yetmas qalamim.
Qo‘limdan kelgancha ta’riflar bitdim,
Goho ilmingizga kelar alamim.

Bayramingiz bilan, aziz ustozim,
Sizni bayram bilan qutlayman dildan.
Barcha o‘quvchilar dildan tabriklar,
Bu tabrik chiqajak har bitta tildan.

AHROR

Ustozga

Kompyuter xonada shaymiz barchamiz
Kompyuterni yoqib hammamiz birdek.
“Facebook”ka kirib xabar yozamiz,
Borguvchi xabarni kulib turasiz.

Yonimdagi do‘stim yozadi xabar,
Men ham albat ko‘rib, yozaman javob.
O‘ziga borguvchi xabarni yopib
“Qaramaginchini”, – deb qilaman xitob.

Sinfda shovqin ko‘tariladi,
Ustoz so‘zlarini ham tinglamaymiz hech.
Ustoz esa bizni turg‘izib qo‘yib
Aytadi: – 5 minut internetdan kech.

Bayram-la qutlayman, ey Ahror ustoz,
Bayramingiz qutlug‘, muborak bo‘lsin.
Har bir shogirdingiz qiladi e‘zoz,
Hayotingiz doim kamalak bo‘lsin.

NARGIZA

Ustozga

Mehribon, yumshoqqalb desalar o'yg'a
Aslo ikkilanmay siz ham kelasiz.
Biram yoqadiki, meni erkalab,
“Binafshaxon” deya kulib turasiz.

Rus tili men uchun eng qiyin fandir,
Siz esa doimo berasiz ko'mak.
Rus tili yoqmaydi, lekin, malagim,
Sizga talpinadi bu shoshqin yurak.

Hammamizni birdek yaxshi ko'rasiz,
Yordamingiz aslo ayamay yana.
Bayram muborakdir, Nargiza Ustoz,
Bugun sizning uchun katta tantana.

XURSHIDA

Ustozga

Ilk yordam... shkafda qolmagan balki,
Men ichib koʻrmagan biror bir dori.
Ammo ular meni tuzatmagan hech,
Meni davolagan mehrdir bari!

Xurshida Ustozning sheva soʻzlari
Mehr jilosi-la goʻzal tovlanar.
Shunda "ukol"dan ham qoʻrquvchi “men”lar
Hamshiram qoʻlida shartta ovlanar.

Sizni qutlab qolar “chin asirangiz”
Xurshida Ustozim, bayram muborak!
(Yangi dori kelsa aytib qoʻyarsiz,
Shunga qarab reja qilishim kerak).

QADRLI DUGONAM

Madinaga

Bu kun kimdir sehrli ko'zguga boqib
So'rasa: "Dunyoda eng suluv qiz kim?"
Ko'zgu ham jamoling ko'rsatar shaksiz,
Go'zal ham lol qolar senga boqib jim.

Siyrating go'zalki, surating go'zal,
Qalbingdan joy olgan, azizam, iymon.
Iymoning quyoshi qalbing yoritib,
Qirmiz yuzing qilmish nurli begumon.

DUGONAM

Shahinaga

Aytisharlar oymomo koʻkka
Chiqqan Shirin tarovatidan.
Men aytaman, joy olgan quyosh
Sen sababli samo qatidan.

Nur taratar nurli yuzingdan
Qalbingdagi iymon yaraqlab.
Qalbi goʻzal suluv malagim,
Yurgin doim baxtni quchoqlab.

TO'RTLILKLAR

Gohida xayollar aridek to'zg'in,
Chaqib olar xasta yuragim hatto.
Va yana ari, lek zahrini emas,
Etadi eng totli asalin ato.

Ilhom kelmay qo'ydi qalbim qasriga,
Issiq sillasini quritdimi yo?
Kalit yo'qotganin aytmay iljayar,
O'zgarganmish qulfi yuragim go'yo.

Yozmoqlikda o'ng qo'lim chaqqon,
Yoza olmas chap qo'lim lekin.
Chap qo'l o'ylar qilmasdan mehnat:
– O'ng qo'lda bor – iste'dod tekin!

Ilhomni izladim dunyolar aro,
Xohishdek bermadi butun bir borliq.
Izquvar emasman, tan olaman, lek
Onamdan topoldim istakdan ortiq.

Mas'uliyat hamda uyqu yonma-yon,
Mas'ullik his qilsam uyqu kelmaydi.
Shunday paytlar bo'lar, nomard uyquyim
Qadrdon do'stini go'yo "bilmaydi".

ILTIMOSNOMA

Mayli tezkor boʻlma hozir,
Yondan yurmay naridan oʻt.
Faqatgina uxlab qolmay,
Ishlab turgin jon internet!

“Nega?” degan xayollar ezaverar qalblarni,
Javobsizdek tuyular million ming bir xil savol.
Lek soʻrovlar girdobin javobi asli bitta –
Allohimning izmi bu, oʻylanmang, chekmang
zavol.

Baʼzan toʻrt qatorning oʻzi kifoya,
Koʻp fikr ifoda etmoqlik uchun.
Shunday mavzular bor, yuzlab satr ham
Koʻrsatolmas uning haqiqiy kuchin!

Yoʻllardagi shovqinlar hech elitmas qalbmni,
Oʻzi qilgan surondan boshqasin suymas Yurak.
Yoʻldagi sokinlik ham ilitolmas qalbmni,
Sokin boʻla olmasdan, tugʻyonin qoʻymas Yurak!

Shovqin solgan kimsalar
Tinglamaslar yuragin.
Sokin kishilar bilmas
Yurakka ne keragin.

BADAVLAT GUL


Tinmay oltin sochar osmon mash'ali,
Zar emadi bunda ko'p boy chechaklar.
Gullarning ichida eng badavlati,
Tilla yaproqchali hur Boychechaklar.

ASLI HAQIQAT

Chaqing mayli ilon kabi, chaqimchilar,
Faqatgina yolg'on qo'shmay chaqing sizlar.
Haqiqatdan qo'rqmaslikni o'rganganman,
Yuragimga xanjar sanchar yolg'on so'zlar.

Nasr

Qatralar



SOF VIJDON

Ari inini buzganni chaqib oladi. Chunki u o'z uyini himoya qiladi-da.

Bilmadim, arilar ham musulmonmikin-a? Ular Allohning bir bandasini chaqib olgani uchun vijdon azobidan qiynalib vafot etishadi.

QALB KO'ZI

Ari iniga cho'p suqqan bolakayning ko'zini jahl ila jon-jahti bilan chaqib oldi. Bolajon bo'lsa yig'lab qoldi. Endi Bolajonning ko'zi shishib, besh-o'n kun ko'rmay yurishi mumkin...

Biroq bolaning ko'zi ochilgan edi.. Endi u hech ham birovlarining uyiga cho'p suqmaydigan bo'ldi.

KICHIK SHU'LA QUDRATI

Bolaligimda uyimiz ko'p xonali edi. Doim har bir xonada chiroq yoniq bo'lar edi. Birimiz oshxonada, birimiz mehmonxonada, yana birimiz o'z xonamizda, qolganlar boshqa xonalarda bo'lar edik. Lekin chiroq o'chib qolgan mahal bir xonaga jam bolib sham yoqar edik. Barchamiz shu miltillagan sham atrofida o'tirib suhbatlashar edik.

Qorong'ida kuchsizgina nur taratayotgan shu'laning qudratini qarang-a! Bekorga "sham" so'zi "jam" so'zi bilan qofiyadosh bo'lmasa kerak.

AJOYIB TASHBEH

Hozirgina juda qoʻrqinchli film tomosha qilgan 5 yoshli qizaloq tirnogʻiga toʻq qizil lak surtayotgan opasiga (hali bunday holatni hech kimda koʻrmagani uchunmi) dedi:

– Anna! Nega qoʻlingga qon surkayapsan?!

* * *

Qahraton qish chillasi.

U maddohlik ila qilgan ishi uchun boshligʻi sovgʻa qilgan “Damas” rusumli mashinasida boshligʻi tayinlagan dorini olish uchun dorixonaga uchib borar edi... Eh... Endi uning hayotga qaytishi uchun ikki Damaslik dori kerak.

GʻALATI SAVOLGA AJIB BIR SAVOL

Bolaligimizda hatto hozir ham koʻp bora “Dadang yaxshimi, yoki oying yaxshimi?” qabilidagi savollar bolajonlarga berilayotganiga guvoh boʻlamiz. Shu savolga dada-oyisini birdek yaxshi koʻradigan bolajon “Ikkisiniyam” degan shirin javobiga ham qanoatlanmay bittasini tanlashligini taʼkidlashadi.

Mening esa shu savolni beruvchilarga bitta savolim bor! Savolimning bitta sharti bor: Siz ham bittasini tanlang. Mening savolim:

– Oʻng qoʻlingiz yaxshimi, yoki chap qoʻlingizmi?

Haqiqatan ham, ota-onamiz ikki qoʻlimiz kabidirlar. Ularsiz hech ishimiz risoladagidek chiqmaydi.

ALLETERATSIYA

“G”

Gulbahorda go‘zal gullardan gunafsha gullari gullarkan, gunafsharang gilam go‘zallashadi. Gulzorda Gulnoza-yu Gulsanamlar gunafsha gulchambarlari-la gulday gurunglashadi.

Gardsiz gullar gulshani gulchehrali gulsanamlarning gavharidir. Gulchehra-yu Gulsanamlar gulzordaligida, Gulsevarlar gunafsha gulini guldonda gurullatib galtirdi. Gunafsha guli-la Gulsevarlarning go‘shasi gulgunroqdir.

Goh gullar go‘zalligi gulbahorni gangitadi, Gulbahor gullarga giryondir.

“T”

To‘satdan tulki tovuq tanovulini tusadi.

Tulki tovuqqa tuzoq tayyorladi. Tulki tovuqning tariq tanovulini tusashini tushunib, tuzoqqa tariq tashladi. Tulki tovuqning tuzoqqa tushishini taxminlab tasmolladi. Tovuq tulkiga tayyor tansiq tushlik-da. Tuzoqqa tushgacha tovuq tushmadi. Tulki tuzoqni to‘g‘irlab, tekshirdi. Tunda tulki tovuqdan tansiq taom tayyorlamoqchi. Tunda tulkining tuzog‘iga toshbaqa tushdi. Tulki toshbaqani turtib, toshbaqani tosh tushundi. Toshdek toshbaqani tulki tashlavordi.

Tulki tovuqli tansiq taom tusab, tinmasdan tentirarkan, tovuq tongdan to tungacha to‘qqiz tuxumi-chun tansiq tariq-la taomlanib, tantanavor tu-tulardi..

“Y”

Yozda yomg'ir yog'maydi. Yana-chi, yozda yanvardek yaxmalaklar-da yo'q. Yaratgan yozni yozdek yaratgan. Yozda yeguliklar yetishadi. Yeguliklar yetishmasdanoq yoshlarga yemishdir. Yuqori yoshdagilar yoshlarga yuzlanishadi:

– Yema, yemanglar, yaxshimas, yetilsin-a... Yo'ldosh, yalangoyoqsan-ku, yoningda yantoq, yaxshi yo'ldan yur. Yiqilasan-ee... Yayra, yana yong'oq yonida yuribsanmi?! Yurma, yalmog'iz yeydi-ku. Yo'lchi, yerga yotma! Yur, yechintirayinchi. Yolg'izim, yorug' yulduzim, Yayraginam, yordamlashvorgin!

Yayraydigan yoz yoxud yoz – yumushlar yaylovi. Yong'oqlarni yig'ish, Yo'lchi, Yo'ldoshlarning yechganlarini yuvish, yuvoshgina, yelindor Yonboshga yaproq, yem-xashak yulish Yayraning yuklamasi. Yayra yayrab Yonboshga yem yediradi:

– Yana yonboshlavobdi-yey. Yemakni ye, Yonbosh.

Yoqimli, yoqimsiz yoz yakunlansa, yana yaxshilab yozni yodlab yuramiz. Yoshlar, yozda yalangoyoq yayravolaylig-a, yozoyim yakunlangach yozdagidek yayrolmaymiz-ku!

Yaratganim yaxshiyamki, yozni yaratgan-da!!!

“Q”

Quyida Qodir-u, Qumrining qissasi.

Qaniydi, qandolat qasri qurilsa-yu, qasrga Qodir qirol, Qumri qirolicha qilinsa. Qal'a qand qirindisidan qurilib, qiyomlansa. Qodirning qishki qiyomrang

qalpog'idek qo'nalg'ayam qurilsa, qirol qarorgohida qoim qolsa.

Qirolicha qo'g'irchog'ini quchganda qo'g'irchoq qalbidagi qandlar qisirlasa. Qandning qisir-qisiridan Qumri qiqirlab quvonsa-ya!..

Qodir qaroqchilik, Qumri qitmirlik qilsa-yu, qitmir qaroqchilarga qarovchilar qiyomxo'rlarni qandolat-la qiynasa!..

Qissaga qiziqib quloq quyayotgan Qizlarxon:

– Qaranglar-a! Qilmish qidirmishdir. Qadrli qissaxonlar qissangizni qo'yaturinglar. Qaylam qirmochlamasin!

O'RIK SO'ZI MENING IZOHLI LUG'ATIMDA...

Biz sevib iste'mol qiladigan o'rik nima uchun "o'rik"?

Oyijonim eng shirin mevalardan bo'lmish o'rikdan murabbo tayyorlayotganda ushbu mevaga nazar solib o'tirdim. Biroz mulohaza yuritdim.

Ushbu asal-u qand meva bug'doy-u arpalarning aynan o'rimi paytida pishishiga e'tibor qaratsak. Balki hozirda biz rohatlanib yeyayotgan mevamiz o'rik, aynan shuning uchun "o'rik" deb nomlangandir. Ha aytgancha, bitilgan narsa bitik deyilganidek, o'rim payti pishib, yeyiladigan meva o'rik deb nomlanar.

Dalalarda o'rim ishlari bilan band bo'lgan mehnatkash akalarimiz-u otalarimizga tushlik mahsulotlari orasiga bir-nechta o'rikdan qo'shib olib borishlarimiz balki shundandir.

MEHRIDARYO SOʻZI MAʼNOSI

Biz nima uchun mehribon kishilarni “mehridaryo” deb ataymiz?

Bilamizki, daryo kabi dengiz va okeanlar tabiiy suv havzalari, yaʼni yerning hosilalaridir. Lekin aynan biz mehrli insonlarga taʼrif berganimizda mehdengiz va mehriokean deb emas mehdaryo deya taʼriflaymiz. Bu soʻzlar eshitilishi gʻalati boʻlib tuyilishi mumkin. Ammo bu jumladan foydalanmasligimiz va eshitmaganligimiz uchun, menimcha.

Okean va dengizlar suvi shoʻr ekanligidan xabarimiz bor. Ammo biz dunyodagi eng ezgu xislat, mehrga qoʻshib aytadigan daryo suvi chuchuk hisoblanadi. Balki shuning uchun mehribon kishilarni sifatlaganimizda mehdaryo deb taʼrif berarmiz.

MUNDARIJA

SHE'RDA KO'NGIL AKSI BOR	3
YURAK	5
TUNGI YOMG'IR	6
SAMO TOPSHIRIG'I	7
BIR XILLIK	8
G'ALATILIK	9
TUNDAN TONGGACHA	10
MITTI BIR MALAK	11
YONARQURT	12
ONAJONIM	13
USTOZ	14
SHOIRLIK QISMATI	15
KAKTUS GULLARI	16
SHOIRNI DEMANG	17
OTA	18
XAZONLAR	19
NIDO	20
MEHRIDARYO SO'ZI	21
INSON QILGANINI EPLAYDI INSON	22
SOXTA SHOIRA	23
SHUKRONALIK	24
BUYUK AJDODLAR	25
"SOG'INGANDA" she'riga nazira	26
TUGALLANMAGAN SHE'R	27
TANLOV UCHUN SHE'R	28
KITOBGA IXLOS	29
GULXAN	30
AYOL	31
SHOIR BOLA NIDOSI	32
SHOIRLIK	33
ONA	34
GUMON	35
YIG'I	36
ASLIYAT	37
ASL MUAMMO	38
RUH VA NAFS JANGI	40

MANTIQ.....	41
IMTIHONGA YAQIN	42
BOLALAR IJODI	43
“KAMTAR” QIZALOQ TILIDAN	44
ENG YAXSHI XARAJAT	45
MENING USTOZIM	46
PIYOZ TILIDAN	47
ULUG‘BEK BOBOMLAR	48
ARZ	49
MUQADDAS VATAN	50
KARANTIN PAYTIDA YOZILGAN SHE‘R	51
MEVA QO‘RIQLASH	52
QISHDA...	53
VATAN SOG‘INCHI	53
SUVNI ASRAYLIK	54
MAYMUN	55
AYIQ	56
1-IYUN – XALQARO BOLALARNI HIMOYA QILISH	
KUNIGA BAG‘ISHLANADI	57

BAG‘ISHLOVLAR

HILOLA USTOZGA	60
SHAVKAT	61
ABDULLA USTOZGA “IKKICHI” O‘QUVCHISIDAN	62
AHROR USTOZGA	63
NARGIZA USTOZGA.....	64
XURSHIDA USTOZG.....	65
QADRLI DUGONAM	66
DUGONAM	67
TO‘RTLIKLAR	68
ILTIMOSNOMA	69
BADAVLAT GUL	70
ASL HAQIQAT	70

NASR

QATRALAR	72
ALLETERATSIYA	74
O‘RIK SO‘ZI MENING IZOHLI LUG‘ATIMDA	76
MEHRIDARYO SO‘ZI MA‘NOSI.....	77



Mashhura Umaraliyeva

Mashhura Umaraliyeva Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi 10-sinf o'quvchisi. Uning adabiyotga, she'riyatga ixlosi baland. Bo'lajak shoironing mazkur kitobdagi tabiat, insonlar, ota-onaga hurmat mavzusidagi misralari diqqatingizni tortadi. Tilimizda kam ishlatiladigan so'zlardan ham she'rlarida o'z o'rnida foydalana olgan.

Ushbu kitobda Mashhura Umaraliyevaning ilk mashqlari, ijodiy qarashlari, qalb kechinmalari, yoshlikning beg'ubor nafasi kelib turuvchi nafis she'rlari o'rin olgan.

Yosh ijodkor o'zining dastlabki she'rlarini siz aziz kitobxonlarga armug'on etmoqda.

ISBN: 978-9910-9068-9-3



9 789910 906893



ijod nashr